

60812100-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi

60812100-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishi-Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, introduksiya qilingan dorivor o'simliklar, ulardan oqilona foydalanish, farmasevtika sanoatining dorivor o'simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadida ishlab chiqish, farmasevtika sanoatining dorivor o'simliklar xom-ashyo mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ishtirok etish, dorivor o'simliklar yetishtirish va qayta ishlash tizimida qo'llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlari, dorivor o'simliklar xom-ashyolarini tayyorlash, dastlabki qayta ishlash va saqlash hamda ishlash jarayonlarini optimallashtirish, ilmiy tadqiqot jarayonlari, dorivor o'simliklar yetishtirish va dastlabki qayta ishlash, xom-ashyo mahsulotlarini saqlash hamda ularga birlamchi ishlov berish korxonalari va tashkilotlarning boshqaruv tizimlariga doir masalalar bilan bog'liq kasbiy soxalari majmuasini qamrab oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida tashkilot, korxona va muassasalar samaradorligi va natijadorligini oshirish jarayonlari; boshqaruvda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy boshqaruv qarorlarini amalga oshirish jarayonlari;

- tashkilot va korxonalarda zamonaviy boshqaruv tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni rag'batlantirish jarayonlari.